



THE "SOFT POWER" FACTOR IN CHINESE FOREIGN POLICY STRATEGY

Shakhnoza Nasimova

Student

*Tashkent State University of Oriental Studies
Tashkent, Uzbekistan*

E-mail: Shahnozanasimova1525@gmail.com

ABOUT ARTICLE

Key words: Soft power, “The Belt and Road Initiative”, “trade war”, foreign policy, Mandarin

Received: 28.04.24

Accepted: 30.04.24

Published: 02.05.24

Abstract: this article analyzes soft power and its tools, as well as the strong and weak aspects, capabilities and possible threats of Chinese soft power.

XITOY TASHQI SIYOSIY STRATEGIYASIDA “YUMSHOQ KUCH” OMILI

Shakhnoza Nasimova

Talaba

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Tashkent, O’zbekiston*

E-mail: Shahnozanasimova1525@gmail.com

МАҚОЛА НАҚИДА

Kalit so‘zlar: Soft power (yumshoq kuch), “Bir makon bir yo‘l”, “savdo urushi”, tashqi siyosat, Mandarin tili

Annotatsiya: Ushbu maqolada yumshoq kuch va uning vositalari, shuningdek, Xitoy yumshoq kuchining kuchli va kuchsiz jihatlari, imkoniyatlari va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan tahdidlari tahlil qilingan.

ФАКТОР «МЯГКОЙ СИЛЫ» ВО ВНЕШНЕПОЛИТИЧЕСКОЙ СТРАТЕГИИ КИТАЯ

Шахноза Насимова

Студент

*Ташкентский государственный университет востоковедения
Ташкент, Узбекистан*

E-mail: Shahnozanasimova1525@gmail.com

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Soft power (мягкая

Аннотация: в этой

статье

сила), «Один пояс — один путь», анализируется мягкая сила и ее «торговая война», внешняя политика, инструменты, а также сильные и слабые стороны, возможности и потенциальные угрозы китайской мягкой силы.

KIRISH

Bugungi kunda jahon siyosiy maydonida turli o‘zgarishlar ro‘y bermoqda va aksariyat davlatlar o‘zlarining ijobiy imidjini namoyon qilishga harakat qilmoqda. Ana shunday davlatlardan biri Xitoy Xalq Respublikasidir. U Ijobiy imidj yaratish, madaniy almashinuvni rag‘batlantirish va o‘zining qadriyatlarini targ‘ib qilish vositasi sifatida yumshoq kuch strategiyasini qabul qildi. Bilamizki, harbiy va iqtisodiy ta’sir ko‘pincha boshqalarning o‘z qarori va pozitsiyasini o‘zgartirishiga qodir bo‘ladi. Qattiq kuch yumshoq kuchdan farqli o‘laroq majburlash va tahdidlarga tayanadi. Yumshoq kuch esa o‘zgalarning afzalliklarini ko‘rsatib berish qobiliyatiga asoslanadi. Qattiq va yumshoq kuch o‘rtasidagi farqni yanada yaxshiroq tushunishning yagona usuli qaysi bir kuch vositasidan o‘z o‘rnida va samarali foydalanishni bilish bilan bog‘liqdir. Yumshoq kuchning jalb qilish qobiliyati ko‘pincha tomonlarning rozi bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Oddiy qilib aytganda, xulq- atvor nuqtayi nazaridan yumshoq kuch jozibali kuchdir.

ASOSIY QISM

Ushbu maqolada **SWOT** tahlildan foydalanildi. "Yumshoq kuch" (soft power) atamasini fanga Garvard universiteti professori Jozef Nay kiritgan. U o‘zining "Yumshoq kuch" nomli kitobida Xitoyning yumshoq kuchi to‘g‘risida quyidagilarni yozadi:" Kelajakda Xitoy va Hindiston Osiyo gigantlariga aylanadi va ularning yumshoq kuch resurslari kengayishi belgilari allaqachon shakllanib ulgurgan" (Nay, Yumshoq kuch, 2023)

Umuman, hozirgi davr geosiyosiy jarayonlarida ilgari kuzatilmagan yangicha qarashlar va tendensiyalar vujudga kelmoqda. Turli hududlarda uzoq vaqt hukmronlik qilgan kuchlar muvozanatida sezilarli o‘zgarishlar sodir bo‘layotgani aynan Xitoyning ta’siri bilan bevosita bog‘liq ekanini ko‘rish mumkin. Zamonaviy Xitoy geosiyosatining asosiy mazmun-mohiyatini "soft power" tamoyili tashkil etib, uning bir qancha tashkiliy mexanizmlari global iqtisodiy-siyosiy jarayonlarda AQSh geosiyosatiga qarama-qarshi tura olishini tasdiqlamoqda. Xitoy tomonidan ilgari surilayotgan "Bir makon bir yo‘l" loyihasining ellikka yaqin davlatlar tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi, Xitoyning BMT, ShHT, BRICS va xalqaro moliyaviy tashkilotlardagi nufuzi hamda ta’siri, "savdo urushi" va boshqa shu singari omillar XXR ning turli vositalar va ko‘rsatgichlar orqali AQShga raqobat qila olishi mumkinligini anglatadi (Bo‘ronov S, Azimov,H, 2023). 1990-yillar Xitoyda yumshoq kuch rasmiy tan olina boshladi va 2000-yillarning boshlarida o‘zining eng yuqori nuqtasiga yetdi. 2007-yilda prezident Hu Jintao

tomonidan o'tkazilgan nutq yumshoq kuchning ahamiyatini belgilashga xizmat qildi va shu orqali Xitoyda yumshoq kuch siyosatini o'rganish boshlandi va 2012-yilda bu hukumat siyosati va strategiyasiga aylandi (Sengel, 2023).

Kuchli jihatlari: Avvalo shuni ta'kidlash kerakki, xitoyliklar qattiq kuchdan ko'ra yumshoq kuch tushunchasini qabul qilgan. Ushbu tushunchaning asosini qattiq kuch o'rniga axloqiy qadriyatlarni ta'kidlaydigan Konfutsiy falsafasi tashkil etadi. Bundan tashqari, u davlatlarning qanday rejimlardan qat'i nazar tinch-totuv yashashiga, ya'ni dunyoning uyg'unligiga urg'u beradi.

Xitoy yumshoq kuch siyosatining kuchli tomonlari shundan iboratki, u har qanday zamon va makonda jamiyat va davlat rivojining asosiy omili sanalgan ta'limni o'z ichiga olganidadir. Xitoy universitetlari va ulardagi keng imkoniyatlar, shuningdek Mandarin tilining ommalashib borayotgani boshqa davlatlardan ko'plab yoshlarning Xitoya borib ta'lim olishini oshirmoqda. Konfutsiy institutlari 2004-yildan buyon butun dunyoda mashhur bo'lib, dunyoning 400 dan ortiq mamlakatlarida xitoy tili, madaniyati va konfutsiy falsafasining tarqalishiga katta hissa qo'shmoqda. Xitoy o'zidagi ta'lim tizimini jahon ommasi uchun jozibali ko'rsatishga erisha olyapti desak adashmagan bo'lamiz. Misol qilib keltirishimiz mumkinki, afrikalik talabalar uzoq vaqtlardan beri Xitoyning universitet dasturi stipendiyalaridan foydalanib kelishadi. Tailand, Vyetnam, Koreya va boshqa davlatlardan Xitoyda bakalavr va aspiranturada o'qishga jalb qilingan o'zini o'zi moliyalashtirgan osiyolik talabalar soni ham ortib bormoqda. Xitoylik talabalar esa xalqaro miqyosda universitet talabalarining salmoqli qismini tashkil etadi. Yaponiya, AQSh, Buyuk Britaniya, Avstraliya va Kanadadagi xorijiy talabalarning eng katta qismi Xitoydan tashrif buyurgan talabalarga to'g'ri keladi. Yoshlarning bu harakati Xitoyning ortib borayotgan ishtiroki, intelektualligi hamda ijtimoiy elitaning aloqasi kengayayotganini anglatadi. Bundan tashqari, Mandarin tili ayniqsa Osiyoda muhim xalqaro biznes tiliga aylanishi mumkin. Vuznov tomonidan keltirilgan tadqiqotga ko'ra, 2006 yilda Xitoyda ta'lim olayotgan chet ellik talabalar soni allaqachon 140 mingtaga yetgan va taxminan ularning 75% Sharqiy Osiyodan edi. (Wuthnow) Ta'lim darajasini oshirish yana bir milliy ustuvor vazifadir. Xitoy o'z universitetlari o'n yil ichida dunyodagi eng yaxshi universitetlar bilan raqobatlashish imkoniyatiga ega bo'lishini e'lon qildi va shu maqsadda milliardlab dollar sarmoya kiritmoqda.

So'nggi yillarda Xitoyning ommaviy axborot vositalaridagi ishtiroki ortib bormoqda: uning san'ati va kino sanoati xorijda yaxshiroq tan olingan, ko'proq odamlar qiziquvchanlik tufayli mamlakatni sayyoh sifatida kashf etishni va tashrif buyurishni xohlashadi (Jacques, 2009: 548-560). Bu mamlakatda yumshoq kuchning tarqalishini ko'rsatadi. 1978 yilgacha qattiq kommunistik rejim davrida Xitoy xalqaro ommaviy axborot medialari qo'pol targ'ibot bilan

cheklangan edi. Shunga qaramay, hozir vaziyat butunlay boshqacha. Xitoy Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi xitoy tilidagi ommaviy axborot vositalarida so‘nggi paytlarda yirik filmlardagi muvaffaqiyatlar, mashhur musiqa sanoati va keng qamrovli yangiliklar bilan hukmronlik qila boshladi. Xitoy rasmiy yangiliklar va Xitoy muammolari haqidagi qarashlarni o‘rganishga qiziqqan har bir kishi uchun hatto ingliz tilida ham yaxshi onlayn yangiliklar provayderiga aylanmoqda. Xitoy, shuningdek, ingliz tilidagi eshittirishlarini tubdan yangilashni rejalashtirmoqda va ekspertlar Xitoyni Osiyo-Tinch okeani mintaqasida ham ko‘ngilochar, ham yangiliklar translyatsiyasiga asosiy o‘yinchi sifatida qo‘shilishini kutmoqda.

Xitoy va uning qo‘shnilari o‘rtasidagi ijobiy madaniy aloqalar Xitoyga xalqaro turizmning o‘sib borishi va xitoyliklarning sayyoh sifatida chet elga tashriflarini amalga oshirishi bilan mustahkamlandi. 2005-yilda 23 milliondan ortiq xitoyliklar Xitoydan tashqarida o‘z sayohatlarini amalga oshirib, Tailand, Singapur kabi mamlakatlarda G‘arb turizmini ortda qoldirishdi. Xitoyning Yevropa Ittifoqiga sayyoohligi ham o‘sishi kutilmoqda, chunki Yevropa Ittifoqining aksariyat davlatlari Xitoy fuqarolariga sayyoohlilik vizalari bo‘yicha cheklovlanri olib tashladilar.

Kuchsiz jihatlari: Shunga qaramay Jakning ta’kidlashicha, Xitoyning ta’siri rivojlanayotgan mamlakatlar orasida katta, ammo G‘arb dunyosida uning yumshoq kuchi hali ham zaif. Bu, ehtimol, uning iqtisodiy tasnifi, siyosiy rejimi (Jacques, 2009: 609-616) va Xitoyning tashqi siyosat strategiyasidagi o‘zgarishlardan (Lanteigne, 2016) kelib chiqadi.

Martin Jak va boshqa olimlarning bayonotiga asoslanib (Shambaugh, 2016; Lanteigne, 2016) shuni ta’kidlash mumkinki, hozirgi vaqtida Xitoy rahbarlari oldida yechimi topilishi lozim bo‘lgan quyidagi masalalar turibdi: yumshoq kuch va ommaviy diplomatiyadan foydalangan holda Xitoyning imidjini o‘zgartirish ustida ishslash, davlatga o‘zining yumshoq kuch aktivlaridan samaraliroq foydalanish imkonini beradigan iqtisodiy quvvatni oshirish.

Xitoy davlati tashqi siyosatda aralashmaslik siyosati doirasida harakat qiladi. Bundan tashqari, Xitoy tinchlik uchun xalqaro ittifoqlarda (masalan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Tinchlik Missiyalariga qo‘shin yuborish) ishtirok etib, tinch va mas’uliyatli qiyofa kasb etadi. Bundan tashqari, ShHT va ASEAN tashkilotlarining a’zosi hisoblanadi. Ammo bir tomonidan tinch taraqqiyot qiyofasi bo‘lsa, ikkinchi tomonidan Janubiy va Sharqiy Xitoy dengizidagi siyosat uning yumshoq kuchini zaiflashtiradi. Bunga yo‘l qo‘ymaslik uchun yumshoq kuch va qattiq kuch uyg‘un bo‘lishi kerak, bunda yumshoq kuch qattiq kuch yaratishi mumkin bo‘lgan salbiy tasvirni yo‘q qila olishi lozim (Sengel, 2023).

Imkoniyatlar. Global iqtisodiy investitsiyalar Xitoyning tashqi siyosat vositasida harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Shu ma’noda, Xitoy, ayniqsa, rivojlanishga intilayotgan

Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlarida ijobiy taassurot qoldiradi va imkoniyat sifatida qaraladi, chunki Xitoy g'arb davlatlari kabi iqtisodiy yordam uchun mafkuraviy shartlarni qo'yaydi. Nay madaniy va mafkuraviy elementlarga urg'u bergan bo'lsa-da, Xitoyning Yumshoq kuchining asosiy e'tibori iqtisodiy yordam va sarmoyaga qaratilgan. Garchi Nay iqtisodiy kuch ba'zi hollarda yumshoq kuch vositasi bo'lishinita'kidlaydi. Shunga qaramay, u odatda iqtisodiyotni qattiq kuchlar toifasiga kiritadi. Biroq, AQSh hukmron mafkurani dunyoga yoyish bilan birga iqtisodiy sarmoyalari orqali kuchga ega bo'lgani haqiqat. Marshall rejasi kabi iqtisodiy yordam paketlari Qo'shma Shtatlarning yumshoq kuchiga poydevor qo'yanidek, "Bir kamar va yo'l tashabbusi" kabi kengroq investitsiyalar Xitoyning rivojlanishiga hissa qo'shadi.

Xitoy bu ta'sirni Afrika va Lotin Amerikasidagi rivojlanayotgan mamlakatlarda yaratgan ko'rindi. Bunda Xitoy tizimning nosoz va buzilish nuqtalaridan foydalanadi. Misol uchun, G'arb davlatlari yordam uchun bir qator shartlarni taqdim etsa-da, Xitoy o'zi bilan shug'ullanayotgan mamlakat rejimlari bilan qiziqmaydi. Demak, bu holat Xitoyning tegishli davlatlardagi obro'sini mustahkamlaydi va uni afzal davlatga aylantiradi.

Uning jahon miqyosida mashhurligini qanday oshirishi mumkinligiga kelsak, buni taqqoslash orqali aniqlashtirish mumkin; Ikkinchi jahon urushidan keyin AQSH dunyo yalpi milliy mahsulotining qariyb yarmini tashkil etgan edi. Shubhasiz, Qo'shma Shtatlar hali ham ko'p sohalarda eng qudratli davlat bo'lib qolmoqda, ammo Xitoy barqaror o'sib bormoqda va hozirgi tuzum muammolari va Qo'shma Shtatlarning interventions yondashuvi Xitoyni dunyoning boshqa qismlarida, ayniqsa G'arbda jozibador qiladi. Shu sababli, Xitoy bir tomondan iqtisodiy sarmoyalarni davom ettirar ekan, aralashmaslik, tinch rivojlanish va g'alaba qozonish tamoyillari doirasida rivojlanishi uning imkoniyat sifatida ko'rilihsida muhim ahamiyat kasb etadi.

Tahlikalar. Xitoy bugungi kunda xalqaro maydonda yaxshi imidjni namoyish qilish uchun raqobat olib bormoqda. Xitoy sondan sifatga o'tishdan va shu tariqa iste'molchilar bozoriga aylanishdan oldin, past ishchi kuchi sarfini ta'minlaydigan "dunyo ishlab chiqaruvchisi" sifatida qabul qilingan. Umuman olganda, Xitoyning keskin rivojlanishining havo va suvning ifloslanishi kabi ekologik muammolarga nisbatan salbiy tomonlari bor: bular hukumat uchun ham xalqaro, ham ichki muammo bo'lishi mumkin. Global iqtisodiy beqarorlik konteksti bilan birlashganda, bu bugungi kunda mintaqaning yetakchisi bo'lib turgan Xitoyning "Global-Osiyo asri" dagi mavqeini shubha ostiga qo'yishi ehtimoli ham yo'q emas. (Henderson, 2008).

Boshqaruv shakliga qaraydigan bo'lsak, XXR ko'plab davlatlar tomonidan avtoritar rejim tomonidan boshqariladigan davlat sifatida qabul qilinadi. Rejim G'arb rivojlangan davlatlari tomonidan baham ko'rigan demokratik qadriyatlarga qo'shilmaydi, bu esa ba'zan xalqaro

maydonda qonun va inson huquqlariga nisbatan keskinlikni keltirib chiqarmoqda. Bundan tashqari, Qo'shma Shtatlar va Xitoy o'rtaida siyosiy rejimlar bo'yicha farqlar mavjud. Yumshoq kuch g'oyasi esa Qo'shma Shtatlardan kelib chiqqan. Bu shuni ko'rsatadiki, Xitoy jahon iqtisodiyotida muhim rol o'ynasa ham, yumshoq kuch strategiyasi bo'yicha u hali AQShning o'rnini egallash qobiliyatiga ega emas (Sengel, 2023) Natijada, dunyo faqat iqtisodiy sohada ko'p qutbli bo'lishga intiladi va ehtimol yumshoq kuchlarni targ'ib qilish bo'yicha raqobat mavjudligicha qolar. Shu o'rinda Amerikaning sobiq MRB direktori Maykl Pampeoning "Washington Free Bacon" nashriga bergen intervyusini ilova qilishimiz mumkin: "Qo'shma Shtatlarning xalaro sahnadagi asosiy raqibi Rossiya yoki Eron emas, balki Xitoydir. O'ylashimcha, yuqoridagi uchta davlatdan faqat Xitoy o'rta va uzoq istiqbolda Amerikaga raqobat qila oladigan potensialga ega" (Bo'ronov S, Azimov,H, 2023)

Bundan tashqari ba'zi tanqidchilar Xitoy yumshoq kuchi to'g'risida quyidagilarni ta'kidlashadi: "Xitoyning yumshoq kuchga bo'lgan sa'y- harakatlari qattiq senzura va nazorat ostida bo'lib, g'oyalar va qadriyatlarning xilma- xil va ochiq almashinuvini targ'ib qilishda samaradorligini cheklaydi". Ana shunday tanqidchilardan yana biri Martin Jak Xitoy madaniyati G'arb madaniy me'yorlariga qarshi chiqishi va boshqalarga global ta'sir ko'rsatish shakliga ega bo'lishini bashorat qiladi, chunki har bir sivilizatsiyaviy davlat dunyo tartibini va xalqaro munosabatlarni o'z tarixi va madaniyati bilan qabul qiladi. (Jacques, 2009: 1-21 va 288). Bu shuni anglatadiki, globallashuv tovarlar, g'oyalar va madaniyatlarning almashinishiga imkon berish orqali ularni birlashtirishga va natijada uzoq muddatda global dunyo tartibini qayta shakllantirishga imkon beradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Xitoy 2012- yilda " yumshoq kuch" ni o'zining siyosati asosiy yo'nalishiga aylantirganidan buyon ushbu strategiyaning turli vostilaridan foydalanib ko'rdi va shunday davom etmoqda. Bugungi kunga kelib uning eng jozibador ko'rinishi universitetlar va ular ajratayotgan imtiyozlar bo'lib turibdi. Etnik, sivilizatsiyaviy va diniy xilma-xillik, shuningdek, xitoy tilini o'rganishdagi qiyinchiliklarga qaramay hali hamon aholini jalb qilish omiliga aylanib turgani " yumshoq kuch" ning qanchalik darajada muvaffaqiyat bilan amalga oshayotganini bevosita ko'rsatib turibdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Bo'ronov S, Azimov,H. (2023). *Sharq mamlakatlarida xavfsizlik muammolari va mojarolar*. Toshkent: EFFECT_D.
2. Dugue-Nevers. (2017). China and Soft Power: Building relations and cooperations. *An Internal Journal*, 71-101.

3. Hunter, A. (2009). Soft Power: China on the global stage. *Chinese Journal of Internatsional Politics*, 373-398.
4. Nay, J. (2023). *Yumshoq kuch*. Toshkent: Trust and support.
5. Sengel, M. A. (april 2023 г.). China's Soft Power. сtp. 12.
6. Wuthnow, J. (б.д.). *The Concept of Power in China's Strategic Discourse*.
7. Jacques, Martin (2009). When China rules the world: The end of the Western world and the birth of a new global order. London: Penguin Books Ltd.
8. Kurlantzick, Joshua (2007). Charm offensive: How China's soft power is transforming the world. New York: Yale University Press.